



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
—
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi.....	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili	127

Ne'mat SEVINCHOV

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Davlat test markazi **Buxoro viloyati**
bo'limi boshlig'i kimyo fanlari nomzodi, dotsent
sevinchov@mail.ru

Maftuna HALIMOVA

Buxoro davlat universiteti
“Organik va fizkolloid kimyo” kafedrasi
1-kurs magistranti

**PEDAGOGIK O'LCHOVLARNING TARKIBIY QISMLARI VA ULARGA
QO'YILADIGAN TALABLAR**

Maqolada pedagogik o'lchov birligi sifatida tect va testologiyaning tushunchalari, tarkibiy qismlari hamda ularga qo'yiladigan didaktik talablar yoritilgan. Shuningdek, bu tushunchalar va talablar kimyo fani misolida tuzilgan testlar orqali aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik o'lchov, test, test topshiriqlari turlari, test shakllari, testlarning qiyinlik darajalari.

В статье описаны понятия, компоненты и дидактические требования теста и тестологии как единицы педагогического измерения. Также эти понятия и требования четко рекомендуются через тесты, построенные на примере химии.

Ключевые слова: педагогическое измерение, тест, виды тестовых заданий, формы тестов, уровни сложности тестов.

The article describes the concepts, components and didactic requirements of the test and testology as a unit of pedagogical measurement. Also, these concepts and requirements are clearly recommended through tests built on the example of chemistry.

Key words: pedagogical dimension, test, types of test items, test forms, test difficulty levels.

Kirish. Test so'zini sinash, tekshirish ma'nolarini anglatadi. Testdan o'tkazish tashxislashning bir bo'limi bo'lib, texnikada, tibbiyotda, ta'limda testdan o'tkazilayotgan obyektning u yoki bu funksiyani bajarishga yaroqlilagini aniqlash uchun qo'llaniladi. Demak, test-standartlashtirilgan qisqa, chegaralangan vaqtdagi sinov bo'lib, u miqdor va sifat bo'yicha individual farqlarni o'rnatishga mo'ljallangan bo'ladi.

Pedagogik test-bajarilish natijalari asosida muayyan bilim sohasi bo'limlari bo'yicha sinaluvchilarining tayyorgarlik darajasini xolisona aniqlash imkonini beruvchi test topshiriqlari to'plamidir. O'quvchilarni o'qitish natijalarini nazorat qilishda testlardan foydalanish metodikasi masalalariga murojaat qilinganda o'qitish natijalarini tekshirish va baholashning quyidagi asosiy funksiyalarini hisobga olish zarur:

Hisobga olish – nazorat qilish (axborot) funksiyasi o'qituvchiga tizimli ravishda o'qitish natijalarini hisobga olishga va har bir o'quvchining o'zlashtirishi haqida, uning o'qishdagi erishgan yutuqlari va kamchiliklari haqida xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi;

Nazoratli – tuzatuvchi (tashxislovchi) funksiyasi “o'qituvchi-o'quvchi” o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlab, o'qitish metodikasiga tuzatishlar kiritish, turli masalalar, mavzular o'rtasida o'quv vaqtini qayta taqsimlashga,

o'quvchilarning bilimlarini tashxislashga, aniqlashga imkon yaratadi;

O'rgatuvchi funksiyasi o'quvchilarga o'quv materialini egallashiga yordam beradi, o'quvchilarning diqqat, e'tiborini o'quv kursining asosiy muammollariga qaratadi, ularda dunyoqarashni shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi, o'quvchilarda uchraydigan o'ziga xos kamchiliklarni ko'rsatib beradi;

Tarbiyaviy (motivatsion) funksiyasi o'quvchilarning kelgusida yaxshi o'qishlarini rag'batlantiradi, ularda o'z bilimlarini chuqurlashtirish hamda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholay olish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Attestatsion funksiyalari o'quvchilar egallagan bilimlarining darajasi bilan bog'liq bo'lib, uni attestatsiyasidan o'tkazishda asosiy rolni o'ynaydi, shuningdek, ta'lim muassasa o'qituvchisini ham attestatsiyadan o'tkazishda muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Testlarning tasnifi

Testlarni quyidagicha farqlash mumkin:

1. *Testlarni tuzish uslubiga ko'ra:* standartlashgan testlar - tafsilot va muayyan tavsiflarga ega bo'lgan, reprezentativ tanlab olishda sinaluvchilar tomonidan barqaror tasdiqlangan, ko'p marta foydalanishga mo'ljallangan pedagogik test; nostandard testlar;

2. *Taqdim etish vositalariga ko'ra:* blankali; predmetli (o'quv fani bo'yicha) testlar;

apparatli (texnika jihozlaridan foydalangan holda diqqat, idrok va xotira kabilarni o'rganishni ko'zda tutuvchi) testlar; amaliy tastlar; kompyuterli testlar (maxsus dastur asosida boshqariladigan kompyuterda o'tkaziladigan pedagogik test sinovi bo'lib, test topshiriqlarining kerakli taqdimotini va test natijalariga ishlov berishni ta'minlaydi).

3. *Yo'nalishiga ko'ra:* intellektni aniqlovchi testlar; birinchi navbatda verbal (og'zaki), raqamli va grafik materiallar bilan ishlay olish darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan psixologik tashxislovchi testlar; shaxsga yo'naltirilgan testlar-shaxsning ijodiy qobiliyatini baholash testlari. Noodatiy fikrlar bildirish, an'anaviy fikrlashdan chetga chiqish, muammoli vaziyatlarni tezda hal qilish qobiliyatini baholash testlari; erishilgan darajani aniqlovchi testlar (sinaluvchi tomonidan muayyan bilim sohasi yoki ko'nikmalarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan) testlar.

4. *Xatti harakatlar xarakteriga ko'ra:* verbal (aqliy faoliyatdan foydalangan holda) - noverbal (obyektlarning amaliy ishlashi bilan bog'liq)

5. *Yetakchi mo'ljalga ko'ra:* tezkorlikni aniqlash testlari (oddiy muammolardan ibora); bilimdonlik quvvatini yoki natijaviylikni aniqlovchi testlar (qiyin masalalardan iborat); aralash testlar (murakkablik darajasi turlicha bo'lgan masalalar).

6. *Bir xillik darajasiga ko'ra:* gomogenli testlar (aniq bir fan bo'yicha tayyorgarlik darajasini tekshiruvchi pedagogik testlar); geterogenli testlar bir necha o'zaro yaqin fan asoslari bo'yicha tayyorgarlik darajasini tekshiruvchi pedagogik testlar,ya'ni tavsifiga va mazmuniga ko'ra farqlanuvchi testlar).

7. *Baholashning obyektivligiga ko'ra:* obyektivlik testlari (natijalarini baholashning obyektivligi shu bilan aniqlanadi), test sinovi natijalarini nqayta ishslash jarayonida test topshiruvchi tomonidan ularning subyektiv talqinini qarab chiqish nazarda tutilmagan); proaktiv testlar (psixologiyada proyektiv yondashish doirasida ishlab chiqilgan metodikalar majmuas).

8. *Ixtisoslashtirilgan testlar:* keng ko'lamli testlar, ular ta'lim jarayoning samaradorligini, o'quv jarayonida o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalar tizimini egallaganlik darajasini baholashga imkon yaratadi; tor yo'nalishdagi testlar, o'quvchilarining alohida o'quv predmetlarini yoki alohida mavzularni o'zlashtirishda erishgan yutuqlarini aniqlashga yo'naltirilgan testlar;

9. *Maqsadli foydalanishga yo'naltirilgan testlar (faqat ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan testlar):* oldindan bilim, ko'nikma va malakalar

darajasini aniqlovchi kirish testlari; ta'lim jarayonida erishilgan o'sish darajasini aniqlovchi testlar; tashxislovchi testlar. Bunday testlarning maqsadi ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'ladi; umumlashtiruvchi testlar (murakkablik darajasi yuqori bo'lgan testlar).

10. *Foydalanish ko'lami kengroq bo'lgan testlar (faqat ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan testlar):* o'qituvchi foydalanishi uchun mo'ljallangan testlar; o'qituvchilar guruhi va ma'muriyat foydalanadigan testlar; guruhlarni saralab olish va shakllantirib olish maqsadida foydalanadigan testlar; o'quvchilarini attestatsiyadan o'tkazish testlari.

11. *Shakliga ko'ra:* yopiq turdag'i testlar; ochiq turdag'i testlar (test topshirig'iga test topshiruvchi yozma ravishda javob kiritadi).

Test topshiriqlari turlari, test shakllari va qiyinlik darajalari

Testlarni turkumlashda ularning qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar.

Adabiyotlarda pedagogik test topshiriqlarining quyidagi shakllari bayon etiladi:

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z tushurib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- to'g'ri bog'lanishni aniqlash uchun topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlar;
- raqamlar bilan to'ldirishga mo'ljallangan topshiriqlar,bunda raqamlar qatorini topish usulini aniqlash va uni muayyan tartibda belgilash;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- masalalar yechishga qaratilgan testlar
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllarni nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar;
- Sinonimlar va antonimlarni farqlashga mo'ljallangan topshiriqlar;

34

- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni niqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir testlar.

Mutaxassislik fanlarida yopiq testlar, ochiq testlar, muvofiqlikni aniqlash testlari va to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlash testlari keng qo‘llaniladi.

Ochiq turdagи topshiriqlarda test topshiruvchiga ehtimoliy javob variantlari ko‘rsatilmagan test topshirig‘I beriladi va sinaluvchiga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob topish taklif etiladi, ya’ni to‘g‘ri javobni sinaluvchining o‘zi shakllantiradi.

Bunday test topshiriqlari qisqa javobli yoki javoblari keng yoritiladigan topshiriqlar – masalalar yechish, modellar va dasturlar tuzish, yozma ishlar, imitasjon dasturlar yordamida tajribalar o‘tkazish bo‘lishi mumkin.

Testga beriladigan yo‘riqnomada buni alohida ko‘rsatish lozim. Javob blankasida keragicha joy ajratiladi.

Misol:

Bir xil sharoitda teng hajmli gazlarda soni teng bo‘ladi.


To‘g‘ri javob: molekulalar

Qisqa javobli ochiq turdagи topshiriqlarni tuzishda quyidagi umumiy e’tirof etilgan qoidalarni inobatga olish zarur:

- Har bir topshiriqda faqat bitta qo‘shimcha bo‘lishi lozim;
- Qo‘shimcha juda muhim atama bo‘lib, uni bilish majburiy bo‘lishi shart;
- Qo‘shimchani yaxshisi gapning oxirida joylashtirgan ma‘qul;
- Savol aniq ifodalanishi, bir xil javobni talab qilishi va ikki xil talqinga yo‘l qo‘yilmasligi lozim;
- Qoldirilgan bo‘sh o‘rin to‘ldiruvchi so‘z sig‘adigan uzunlikka ega bo‘lishi kerak.

Yopiq turdagи topshiriqlar – topshiriqlarning qo‘yilgan savolga, turli variantlardagi javoblarni nazarda tutuvchi test turi. Test topshiruvchilarga taklif etiladigan javoblardan faqat bitta yoki bir nechta, uning fikricha, to‘g‘ri bo‘lgan javob tanlanadi. Yopiq turdagи topshiriqlarda test topshiruvchi javobni yopiq ro‘yxatdan tanlab oladi.

O‘quvchilarni o‘qitish natijalarini nazorat qilishda testlardan foydalanish metodikasi masalalariga murojaat qilinganda o‘qitish natijalarini tekshirish va baholashning quyidagi asosiy funksiyalarini hisobga olish zarur.



Muqobil topshiriqlarda javoblarning 2 xil bo‘lishi nazarda tutiladi

Misol: Bir xil sharoitda teng hajmli gazlarda molekulalar soni teng bo‘ladi. Avogadro qonuni. A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

To‘g‘ri javob : A

Ko‘p javoblardan biri tanlab olinadigan topshiriqlarda odatda 4 va undan ortiq javoblar

nazarda tutiladi va e’tiborni chalg‘ituvchi bir necha noto‘g‘ri javoblardan tashkil topadi.

Misol: Yadro zaryadlari bir xil bo‘lgan atomlarning muayyan turi.

- A. Atom
- B. Molekula
- C. Yadro zaryad
- D. Kimyoviy element

To‘g‘ri javob:D

Eng yaxshi javob topish so'raglan test topshirig'ida test topshiruvchi bir qancha variantlar ichidan eng yaxshisini tanlab olishi kerak.

Misol: Atom-?

A. Musbat zaryadlangan yadro va manfiy zaryadlangan elektronlardan tashkil topgan.

B. Bo'linmas zarracha

C. Elektroneytral zarracha

D. Musbat zaryadlangan yadro va manfiy zaryadlangan elektronlardan tashkil topgan elektroneytral bo'linmas zarracha.

To'g'ri javob:D

To'g'ri javobning bir qancha variant berilgan test topshirig'ida test topshiruvchi keltirilgan ro'yxatdan bir nechta to'g'ri javoblarni tanlashi kerak.

Misol: Qaysi javobda temir rudasini katta miqdorda import qiluvchi mamlakatlar to'g'ri ko'rsatilgan.

1. AQSH
 2. Pokiston
 3. Xitoy
 4. Buyuk Britaniya
 5. Braziliya
 6. Yaponiya
 7. GFR
 8. Rossiya
 9. Koreya Respublikasi
- A.1,3,4,6,7,9
B.2,3,5,6,8,9
C.1,3,4,7,8,9
D.1,2,5,7,8,9

To'g'ri javob:A

Tugallanmagan jumla berilgan test topshirig'ida test topshiruvchi to'g'ri javobni tanlab fikrni tugallashi lozim.

Misol: kimyoiy reaksiyaga kirishuvchi va reaksiya natijasida hosil bo'lgan gaz moddalarning hajmlari nisbati o'zarosidagi nisbati kabi bo'ladi.

A. Ekvivalentlar qonuni; katta butun sonlar
B. Ekvivalentlar qonuni; kichik butun sonlar

- C. Hajmiy nisbatlar q; kichik butun sonlar
D. Karrali nisbatlar q; katta butun sonlar

To'g'ri javob: C

Test topshiriqlari o'zining qiyinligiga qarab bir necha darajalarga bo'linadi.

Birinchi darajali qiyinlikdagi test topshiriqlari bo'lib olish, eslash va xotirlash darajasida asosiy tushunchalar o'zlashtirilganligiga, ma'lumotlarni oddiy aks ettiradigan savollarga qaratilgan bo'ladi.

Ikkinci darajali qiyinlikdagi test topshiriqlari o'yash, fikr yuritish, mulohaza qilishni talab etadigan, kichik ma'lumotni qamrab oladigan,

standart holatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. 35

Uchinchiligi darajali qiyinlikdagi test topshiriqlari egallangan bilimlarni ijodiy bajarishni talab etadigan va nostandard holatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar

Vazifalari o'qitishning qonun, qonuniyatlar, tamoyillari va vositalarini tadqiq etishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan tuzilgan test topshiriqlarining hammasini ham birdek ishonchli deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilish zarur:

1. O'quv maqsadiga muvofiqligi.

Test topshiriqlarining mazmuni o'quv maqsadiga qaratilishi lozim. Har bir test savoli ma'lum bir o'quv maqsadni ro'yobga chiqishini ta'minlashi zarur.

2. Materialning ahamiyatliligi.

Test savollariga o'quv materialining eng muhim, asosiy qismlarini kiritish kerak. Testda topshiriqlar soni odatda cheklangan bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri qo'yilayotgan masalada barcha mavzular to'liq qamrab olinmagan bo'lishi mumkin.

3. Ilmiy aniqligi. Testga mushohada bilim orqali asoslash mumkin bo'lgan haqqoni ma'lumotlar kiritilishi kerak. Fandagi munozarali qarashlarni test savollariga kiritish tavsiya etilmaydi. Test topshiriqlari asosan avvaldan ma'lum bo'lgan aniq javob berilishini taqozo etadi.

4. Izchilligi. Testdagi topshiriqlar ma'lum bir fanga taalluqli bo'lib, mohiyatiga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lishi lozim.

5. To'kislik va uyg'unlik. Testdagi topshiriqlarning umumiy soni mavzu va qismlarga nisbatan muvofiq taqsimlanishi muhim. Bunda o'rganilayotgan fanning barcha jihatlarini to'la qamrab olinishi lozim.

6. O'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqaqlashtirish. Test topshiriqlariga barcha o'quvchilar tomonidan bajarilavermaydigan topshiriqlarni kiritish kerak. Shuning bilan birgalikda test topshiriqlari tarkibiga umuman bajarib bo'lmaydigan test topshiriqlarini kiritish mumkin emas.

Bilish darajasidagi test topshiriqlari avval o'zlashtirib olingen ma'lumotlarni qayta tiklashga asoslanadi. Bunda xotira quvvati katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Reproduktiv darajadagi testlarda esa, o'quvchi oldin o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil fikrlaydi, topshiriq bajarganda esa fanda avvaldan ma'lum bo'lgan qoida va algoritmlarga suyanadi.

36 *Unumli ijodiy fikrlashga oid test topshiriqlari esa ma'lum umumiyl metoddarni topshiriqda ko'rsatilgan aniq shart sharoitlarga mustaqil qo'llash layoqatini sinaydi.*

Ijodiy fikrlash darajasiga oid tuzilgan testlarda topshiriq umumiyl holda bayon etiladi, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan hattiharakatlar va vaziyatlarni o'quvchi ijodiy fikrlash natijasida aniqlaydi.

7. Samaradorlik (kumulyativlik).

Samaradorlik testlari topshiriqlarning brogan sari murakkablashib borishini nazarda tutadi. Bu qat'iy talab emas, chunki zamonaviy kompyuterli test tizimida keying savol oldingi savol javobiga qarab beriladi.

8. Qat'iy belgilangan vaqt. Bu shartning mohiyati shundan iboratki, o'yash uchun 2 daqiqa dan ortiq vaqt talab etiladigan test savollari bo'lmashligi lozim. Bir necha xorijiy test topshiriqlarini tahlil etilganda, matematika bo'yicha 65 sekund, til va adabiyot bo'yicha 32 sekund, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha 41 sekund, dalillar va iboralar uchun 20-25 sekund, chizmalar uchun 90 sekund, shakllarni aniqlash uchun 90-120 sekund vaqt ajratilishi ma'lum bo'lgan. Javoblari keng yoritiladigan ochiq test topshiriqlari bundan mustasno.

9. Ixchamlik. Test topshiriqlarining matni cho'zilib ketmasligi, qalashtirib tashlanmasligi lozim. Murakkab, ko'lami keng o'quv savolini o'zlashtirishni aniqlash zarur bo'lgan hollarda, uni bir qancha ixcham test topshiriqlariga bo'lib tuzilgani ma'qul.

10. Til ravonligi va aniqligi, bir ma'noliligi. Test topshiriqlarni shakllantirishda ko'p ma'nolilik va noaniqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. AQSHda test topshiriqlarini tuzuvchilar guruhiga muayyan bir o'quv fani bo'yicha tajribali pedagog va ruhshunosdan tashqari adabiy muharrir ham kiritilishi an'anaga aylangan.

11. Murakkablik me'yori (yaroqliligi). Test topshiriqlari pedagogik jihatdan samarali bo'lishi uchun, ular oddiy berib qolmasligi, javobi ochiqdan-ochiq ayon bo'lmashligi lozim. Natijasi yarimga teng ($P=0,5$) bo'lgan test topshiriqlari nisbatan samarali hisoblanadi. Bunday natija o'quv materialini yaxshi o'zlashtirgan yoki chuqur tayyorgarlik ko'rmagano'quvchini aniqlashni osonlashtiradi.

12. To'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud bo'lmashligi. Test tuzishda tajribasiz kishi tushunarli bo'lsin degan maqsadda to'g'ri javobni boshqa javoblarga nisbatan kengroq va batafsilroq bayon qiladi. O'quvchilar bu farqni tez anglab oladilar va javobni ana shu belgiga qarab aniqlashadi. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

13. Variativlik (o'zgaruvchanlik). O'quv materialidagi ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishni nazorat qilish uchun, mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik (Grammatik toifa) belgilari yoki murakkablik darajasiga ko'ra turlicha bo'lgan, lekin bitta o'quv materialiga tegishli test savollarini tuzish mumkin. Bu bir o'quv maqsadiga erishish yo'lida topshiriqlar turkumini yaratish imkonini beradi (invariant testlar).

14. Shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik. Bu talab falsafadan, uning qoidalarni san'at asarlarini o'rganishga qiyoslashdan olingan. Gegel fikricha, haqiqiy san'at asari shaklan va mazmunan yaxlit asardir.

Test topshiriqlarini tuzish qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Savolni shakllantirishni to'g'ri javobdan boshlash kerak.

2. Topshiriq mazmuni ta'lim mazmuni talablariga mos kelishi va ta'lim mazmunini aks ettirishi kerak.

3. Savol bitta tugallangan fikrdan iborat bo'lishi kerak.

4. Savol tuzishda "ba'zan", "ko'pincha", "har doim", "hamma", "hech qachon" so'zlarini e'tiborlik bilan ishlatishi zarur.

5. Savol katta, katta emas, kichik, ko'p, kam, kamroq so'zlarini deyarli ishlatmagan holda aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak.

6. Asosiy fikr bilan aloqasi bo'lmagan so'zlardan saqlanish

7. Noto'g'ri javoblar oqilona mohirona tanlangan bo'lishi noto'g'riliqi aniq bilinib qolmasligi kerak.

8. "Hiylali" savollarni bermang

9. Javoblarning barcha variantlari topshiriqning asosiy qismi bilan Grammatik tarzda muvifiqlashgan bo'lishi kerak.

10. Savolning asosiy qismida inkor qilishdan kamroq foydalaning, ikki marotaba inkor qilishdan saqlaning.

11. Qo'yilgan savolga javob oldingi javoblarga bog'liq bo'lmashin.

12. To'g'ri va noto'g'ri javoblar mazmunan, tuzilishiga ko'ra va so'zlarining sonigaa ko'ra bir xil bo'lishi kerak.

13. Agar savol miqdoriy xarakterda bo'lsa, u holda javoblarni o'sish tartibida joylashtiring.

14. Javob variantlarida "hammasi to'g'ri", "to'g'ri javob yo'q" shaklida berilmashligi kerak.

15. Takrorlanishlarga yo'l qo'y mang.

16. Savolni o'zida cheklovlardan foydalaning.

17. Savolni soddalashtirmang.

- | | |
|---|---|
| 18. To‘g‘ri javobning joyi shunday o‘rnatilishi kerakki,u bir savoldan boshqa savollarga o‘tishda takrorlanmasin; | 19. Uzun savol va qisqa javobdan foydalanish ma’qul |
| | 20. Topshiriqlarni anchagini yaxshi tayyorlangan o‘quvchining noto‘ |
| 21. g‘ri javobi nuqtayi nazaridan tahlil qiling. | |

Adabiyotlar

1. Mansfield Center, CT: Creative Learning Press. Lin, Y. T., Wen, M. L., Jou, M., & Wu, D. W. (2014). A cloud-based learning environment for developing student reflection abilities. *Computers in Human Behavior*, 32, 244-252.
2. Akyuz, D. (2018). Measuring technological pedagogical content knowledge (TPACK) through performance assessment. *Computers & Education*, 125, 212–225. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2018.06.012>
3. N.N.Ermatova. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi: uslubiy qo‘llanma. T.:2018
4. Z.Z.Mirvaliyev. Pedagogik o‘lchovlarda test topshiriq turlari . O‘quv uslubiy qo‘llanma. T. 2018